


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA
ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI
HIMOYA QILISH QO'MITASI
FARG'ONA VILOYATI HUDUDY
BOSHQARMASI**

Farg'ona sh., E'tilqod ko'chasi, 5
Teli 73-226-11-22, e-mail: fr@antimon.gov.uz



**COMPETITION PROMOTION
AND CONSUMER PROTECTION
COMMITTEE OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
FEROHANA REGIONAL
DEPARTMENT**

5, Etilqod street, Fergana city
Tel: 73-226-11-22, e-mail: fr@antimon.gov.uz

Q A R O R

«4» aprel 2025 yil

3-15-2025/19 - sonli ish

Farg'ona shahar

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasining "Raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi yuzasidan ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha maxsus komissiyasi" rasmiy – hududiy boshqarma boshlig'i o'rinbosari N.Yunusov, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama faoliyatini tartibga solish bo'limi boshlig'i o'rinbosari A.Ulambayev, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama faoliyatini tartibga solish bo'limi bosh mutaxassisi A.Sulaymonov, Reklama bozori va kreativ sohalarni rivojlantirish shoxbasi bosh mutaxassisi A.Abdullayev, boshqarma bosh yuriskonsult – J.Ibroximovlar tarkibida "Agro Rishon ta'mir servis" MChJga nisbatan O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 5, 6, 9 va 21-moddalari talablari buzilganligi holati bo'yicha qo'zg'atilgan 3-15-2025/9-sonli ishni 04.04.2025 yil kuni "Agro Rishon ta'mir servis" MChJ rahbari M.Nurmatov va "Agro Rishon ta'mir servis" MChJning Rishon tuman bo'limi rahbari B.Xaydarovlar ishtirokida ko'rib chiqib, quyidagilarni

ANIQLADI:

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasining 2025 yil 13 fevraldagi 05-T-sonli buyrug'iga O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi qonuni hamda qonunosti normativ hujjatlar talablariga rioya etilishi yuzasidan "Agro Rishon ta'mir servis" MChJ da tekshirish o'tkazilgan. (tekshiruv raqami: 392-364-742)

O'tkazilgan tekshirishda quyidagilar aniqlangan:

Jamiatning Rishon tuman filiali Rishon tuman Daxbot MPY M.Tilavoldiev ko'chasida joylashgan bo'lib, filialning kirish qamida filial nomi, manzili, ish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emas, aksincha filialning kirish qamiga "Farg'ona viloyati Ekologiya va atrof muhitni saxafaza qilish boshqarmasi Farg'ona viloyati Toza hudud Davlat unitar korxonasi Rishon tuman filiali" degan noto'g'ri, iste'molchilarni chalg'ituvchi ma'lumotlar mavjudligi, Dang'ara tuman filiali Dang'ara tuman Chirnobod qishlog'ida joylashgan bo'lib, filialning kirish qamida filial nomi, manzili, ish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emasligi, Bag'dod tuman filialida filialning kirish qamida filial nomi, ish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirilganligi, lekin joylashgan manzili to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emasligi, Buvayda tuman filialida filialning kirish qamida filial nomi yozilgan bo'lib, joylashgan manzili, ish tartibi

to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emasligi, Uchko'prik tuman filialida filialning kirish qismida filial nomi, joylashgan manzili, ish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emasligi aniqlangan.

Yuqoridagi holatlar natijasida jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 5-moddasi "Sotuvchi (ijrochi) o'z tashkilotining firma nomi, uning joylashgan (yuridik) manzili va ish tartibini iste'molchilarga ma'lum qilishi shart" deb belgilangan talabi buzilishiga yo'l qo'yilganligi aniqlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 6-moddasi "Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchiga o'zi realizatsiya qilayotgan tovar (ish, xizmat)lar haqida o'z vaqtida zarur, to'g'ri va tushunarli ma'lumot berishi shartligi" talabalari bo'yicha o'rganilganda quyidagilar aniqlangan:

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 fevraldagi 95-son qarori bilan tasdiqlangan "Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish qoidalarini"ning 44-bandiga asosan xizmat ko'rsatuvchi tashkilot "xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning stendida, e'lonlar taxtasida ko'rsatilayotgan xizmatlar, ularning amaldagi tariflari, to'lov shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish jadvali, maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha jismoniy shaxslarga xizmatlar ko'rsatish uchun ommaviy shartnomani joylashtirish"ga majburligi belgilangan. Lekin, jamiyatning Bag'dod, Uchko'prik, Buvayda, Rishton filiallarida stend yoki e'lonlar taxtasi tashkil qilinmagan va yuqoridagi ma'lumotlar joylashtirilmaganligi aniqlandi. Shuningdek, Dang'ara tumanida e'lonlar taxtasida xizmat uchun belgilangan tariflar va chiqindilarni olib chiqish grafigi nusxasi joylashtirilgan bo'lib, ommaviy shartnoma namunasi joylashtirilmaganligi natijasida jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 6-moddasi 1-qismi talablari buzilishiga yo'l qo'yilganligi aniqlangan.

Jamiyat tomonidan maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflarini shakllantirilishi va qo'llanilishi bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 dekabrda 722-son qarori bilan tasdiqlangan "Narxlar (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy ahamiyatli tovarlar (xizmatlar) va ularning strategik turlari ro'yxatiga Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni tashish xizmatlari ham kiritilgan.

Farg'ona viloyati xokiminining 2023 yil 2 noyabrda 361-11-0-Q/23-sonli "Viloyat hududida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov narxlarni (tariflarni) tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflari shaxarlarda 5000 so'm, tuman hududlarida 4000 so'm belgilangan. Mazkur qaror "Yangi Farg'ona" gazetasining 2023 yil 8 noyabrda 89-sonli sonida e'lon qilingan. Jamiyat tomonidan mazkur tariflar 2023 yil 1 dekabrda boshlab amalga kiritilgan. Mazkur tariflarni shakllantirish jarayonida narxlarni tartibga soluvchi organga (viloyat moliya boshqarmasi) jamiyat tomonidan tariflarni shakllantirish uchun ma'lumotlar taqdim etilmaganligi ma'lum bo'lgan.

Xalq deputatlari viloyat kengashining 2024 yil 29 martda VI66-36-11-0-K/24-sonli "Viloyat hududida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat

ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflarini qayta ko'rib chiqish va ma'qullash haqida"gi qaroriga asosan maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun mavjuriy to'lov tariflari shaxarlarda 5600 so'm, tuman hududlarida 4480 so'm belgilanib, mazkur qarorning 7-bandida qaror viloyat hokimining tegishli qarori bilan tasdiqlanishi hamda 8-bandida rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kirishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunining 38-moddasiga asosan normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi kerakligi, qonunning 40-moddasida normativ-huquqiy hujjatlar, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kirishi belgilangan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 fevraldagi 95-son qarori bilan tasdiqlangan "Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish qoidalarini"ning 44-bandiga asosan xizmat ko'rsatuvchi tashkilot maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning tartibi va tariflarining o'zgarganligi to'g'risida ushbu tariflar kuchga kirishidan o'n besh kun avval xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning stendida, e'lonlar taxtasida e'lonlar osish yo'li bilan, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali iste'molchini xabardor qilishga majburligi belgilangan.

Lekin, tekshirish davomida mazkur qaror rasmiy nashrlarda e'lon qilinmaganligi aniqlanib, e'lon qilinganligini tasdiqlovchi xujjatlar taqdim etilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 dekabrda 722-son qarori bilan tasdiqlangan "Tovarlarga (ishlar, xizmatlarga) tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) shakllantirish, deklaratsiya qilish (tasdiqlash) va belgilash hamda ularning qo'llanishini davlat tomonidan nazorat qilish, shuningdek, tovar va moliya bozorida sotiladigan tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) monopol yuqori va monopol past narxlarini aniqlash tartibi to'g'risida"gi nizomning 47-bandi 2-xatboshi talabiga asosan deklaratsiya qilingan (tasdiqlangan), kelishilgan va belgilangan tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) oshirish tovarlarga (ishlar, xizmatlarga) tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) shakllantirish, deklaratsiya qilish (tasdiqlash) va belgilash hamda ularning qo'llanishi talablari buzilishi hisoblanishi belgilangan.

Nizomning 48-bandida Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan narxni (tarifni) qo'llash tartibi buzilishi natijasida olingan mablag'lar tovarlarni asossiz oshirilgan narx (tarif) bo'yicha sotishdan olingan haqiqatdagi tushum bilan (unga qo'shimcha haq, chegirmalar va boshqalar hisobga olingan holda) ushbu tovarning belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan (tasdiqlangan, kelishilgan) narxi (tarifi) qiymati (unga qo'shimcha haq, chegirmalar va boshqalar hisobga olingan holda) o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanishi nazarda tutilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 fevraldagi 95-son qarori bilan tasdiqlangan "Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish qoidalarini"ning 20-bandiga asosan to'lovni hisoblash tegishli davrlarda amalda bo'lgan qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun tariflar bo'yicha amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, yuqoridagi holatda amalda bo'lgan tariflar ya'ni shaharlarda 5000 so'm, tuman xududlari uchun 4000 so'm bo'lsada, qonunniy jihatdan kuchga kirmagan tariflar asosida 2024 yilning aprel oyidan boshlab tariflar oshirilib qo'llanganligi aniqlangan.

Jumladan, mazkur davrda 2024 yilning aprel oyidan 2025 yilning fevral oyiga qadar jamiyatning Bag'dod tuman filiali tomonidan yuqori tarif qo'llanilishi natijasida 566 743 296 so'm, Buvayda tumani filiali tomonidan 499 953 854 so'm, Rishton tumani filiali tomonidan 593 670 299 so'm, Uchko'prik tumani filiali tomonidan 708 209 739 so'm ortiqcha xaq undirilganligi aniqlangan. (hisob-kitob jadvallari ilova qilinadi)

Jamiyatning Buvayda, Rishton va Uchko'prik tuman filiallariga 2024 yilning aprel oyidan 2025 yilning fevral oyiga qadar qonunniy jihatdan kuchga kirmagan tariflar asosida tariflar oshirilib qo'llangan davr mobaynida jami 10 024 585 601 so'm mablag' tushum kelib tushgan.

O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 9-moddasiga asosan "Oldi-sotdi shartnomalarining ayrim turlari to'g'risidagi qoidalar, shuningdek, ayrim turdagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish qoidalarini O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlanishi belgilangan va Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 fevraldagi 95-son qarori bilan "Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish qoidalarini" tasdiqlangan. Mazkur qoidalarining 44-bandiga asosan xizmat ko'rsatuvchi tashkilot qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishning minimal davriyligiga rioya etishga, o'ziga birlashtirilgan hududda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan belgilangan tartibda kelishilgan jadvalga muvofiq, qattiq maishiy chiqindilarning muntazam olib chiqib ketilishini amalga oshirishga majburligi belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 fevraldagi 95-son qarori bilan tasdiqlangan "Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish qoidalarini"ning 16-bandiga asosan qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishning minimal davriyligi chiqindi to'plash shoxobchalaridan — bir kunda bir marotaba va yakka tartibdagi turar joy sektoridan «signal» usulida — uch kunda bir marotabani tashkil qilishi belgilangan. Shuningdek, 17-bandiga asosan qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish jadvali fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan kelishilgan holda belgilanishi, bunda sanitariya qoidalarini, normalari va gigiena normativlariga muvofiq maishiy chiqindilarni saqlashning cheklangan muddatidan o'tib ketmasligi lozimligi nazarda tutilgan. Shuningdek, ommaviy ofertaning 6-bandiga asosan xizmat ko'rsatuvchi tashkilot qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishning minimal davriyligiga rioya etishga, o'ziga birlashtirilgan hududda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan belgilangan tartibda kelishilgan jadvalga muvofiq, qattiq maishiy chiqindilarning muntazam olib chiqib ketilishini amalga oshirishga majburligi belgilangan.

Lekin, jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish jadvali fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan kelishilmaganligi, mazkur jadvalar maxalla fuqarolar yig'inlarida mavjud emasligi, jadvallarni ishlab chiqishda qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishning minimal davriyligiga amal qilinmaganligi ya'ni yakka tartibdagi turar joy sektoridan «signal» usulida — uch kunda bir marotaba olib chiqish ta'minlanmagan holda tuzilganligi aniqlangan.

Jumladan, jamiyatning Uchko'prik tuman filiali tomonidan ishlab chiqilgan jadvalda mazkur minimal davriylikka rioya qilinmaganligi ya'ni tumanning Sariqo'rg'on, Yangi yo'l, Yangiqishloq, Baxrin, Yulg'unzor, Zig'ir, Katta Kenagas, Qurbonqashqar, Mirzaxo'ja, G'ijdon, Uchko'prik, Chang, Mexnatobod, Sobirjon MFYdan 1 haftada 1 kun chiqindilarni olib chiqib ketish belgilanganligi sababli 2025 yil yanvar oyi davomida

yuqorida ko'rsatilgan MFYlarda qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishning minimal davriyligiga (uch kunda bir marotaba) rioya etilmaganligi natijasida 104 603 520 so'm ortiqcha xaq undirilganligi aniqlangan. (hisob-kitob jadvali ilova qilinadi)

Huddi shu kabi, Rishton tuman filiali tomonidan A.Navoiy, Abdullabayon, Ar-Roshidoni, Birlashgan, Bog'iston, Buloqboshi, Gumbaz, Dasht Pandigon, Dexkon Obod, Dorulomon, Yoshlik, Zararik, Zoxidon, Istiqbol, Kozi Axror, Koshkayron, Qo'rg'oncha, M.Topivoldiev, Markaz, Minor, Oqtomir, O'yrat, Uch-Arik, Farovonlik, Xuja-Ilgor, Xurramobod MFYlarda qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishning minimal davriyligiga (uch kunda bir marotaba) rioya etilmaganligi natijasida 131 193 216 so'm ortiqcha xaq undirilganligi aniqlangan. (hisob-kitob jadvali ilova qilinadi)

Jamiyatning Buvayda tuman filiali tomonidan ishlab chiqilgan jadvalda mazkur minimal davriylikka rioya qilinmaganligi ya'ni tumanning Xasankurgoncha, Sho'r, Okkurgon, Pishagar, Tuman, Elobod, Ozod, Buvimozor, Chutaka, Tepalik, Do'stlik, O'rta Ko'ngirot, Jaloer, Beglar, Dodxo, Jiydali, Nayman, Ingirchok, Maslaxat, Kurg'oncha, Yangikurgon, Dexkonobod, Jov, Bachkir, Buvayda, Chumbogish, Qum, Shodlik, Yangiqadam, Qoratepa, Beshtarak, Jilva, Arab, Bekobod, Yuqori Mang'it, Xonobod, Turk, Oyimqishloq, Poshshopirim, Tog'lik, Xo'jabod, Yangi Qishloq, Buyuk Ipak Yo'li, Oqtepa, Xakimto'ra MFYlaridan 10 kunda 1 marta chiqindilarni olib chiqib ketish belgilanganligi sababli 2025 yil yanvar oyi davomida yuqorida ko'rsatilgan MFYlarda qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishning minimal davriyligiga (uch kunda bir marotaba) rioya etilmaganligi natijasida 318 407 488 so'm, Bag'dod tuman filiali tomonidan ishlab chiqilgan jadvalda mazkur minimal davriylikka rioya qilinmaganligi ya'ni tumanning Saxovat, Kushchinor, Namuna, Bedarak, Yuksalish, Paxtaobod, Yukori Mirzaobod, Churindi, Namuna, Qashqari, Chuvalanchi MFYlaridan 1 xaftada 1 kun chikindilarni olib chiqib ketish belgilanganligi sababli 2025 yil yanvar oyi davomida yuqorida ko'rsatilgan MFYlarda qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishning minimal davriyligiga (uch kunda bir marotaba) rioya etilmaganligi natijasida 60 189 696 so'm ortiqcha xaq undirilganligi aniqlangan. (hisob-kitob jadvali ilova qilinadi)

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 fevraldagi 95-son qarori bilan tasdiqlangan "Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish qoidolari"ning 33-bandiga asosan maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha tegishli bo'lmagan sifatdagi xizmatlar ko'rsatilganda yoki xizmat ko'rsatilmagan taqdirda iste'molchi tegishli davr uchun to'lovlardan ozod etilishi belgilangan.

Lekin, tekshirish davomida to'plangan ma'lumotlarga asosan ayrim hududlarda tegishli bo'lmagan sifatdagi xizmatlar ko'rsatilishi xamda xizmat ko'rsatilmagan holatlar mavjud bo'lsada mazkur iste'molchilar uchun haq hisoblanganligi to'lovlardan ozod etilmaganligi aniqlangan:

Jumladan, Uchko'prik tumani hududidagi MFYlardan olingan ma'lumotlar va filial tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga asosan o'rganilganda Tojik, Qorayantoq, Sariqo'rg'on, Mergan, Qurbonqashqar MFYlariga 2024-2025 yillarda xizmat ko'rsatilmagan bo'lsada mazkur hududdagi iste'molchilarga to'lovlar hisoblanganligi aniqlangan.

Shuningdek Bekmurod, Bog'ibo'ston, Istiqbol, Katta kenagas, Katta qorako'l, Qumariqariq, Mashad, Mirzaxo'ja, Oltin vodi, Puchog'oy, Soy bo'y, Sobirjon, Tepaqo'rg'on, Turvoq, Chorbog', Yulg'unzor va Yangibog' MFYlarida yashovchi aholi

xonadonlarigi 2024 yil davomida sifatsiz, ya'ni amaldagi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 fevraldagi 95-sonli qaror talablari asosida xizmat ko'rsatilmaganligi natijasida 2 906 522 820 so'm ortiqcha mablag' hisoblanganligi ma'lum bo'lgan.

Bag'dod tumanidagi Irg'oli, Saxovat, O'zbekiston, Paxtaobod, Bekobod, Sho'roqer, Konizar, Qashqarmakey, Qo'g'oli MFYlariga aholi xonadonlariga 2022 yildan 2025 yil fevral oyiga qadar Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 fevraldagi 95-sonli qaror talabiga ko'ra uch kunda bir xizmat ko'rsatilmasdan bir haftada bir marta qamrov asosida xizmat ko'rsatib kelinishi natijasida 2022 yil davomida 396 664 770 so'm, 2023 yil davomida 601 337 698 so'm, 2024 yil davomida 856 665 203 so'm, 2025 yil yanvar oyi davomida 73 159 296 so'm jami 1 927 826 967 so'm ortiqcha mablag'lar hisoblanganligi;

Rishton tumanidagi Ar-Roshidoni, Dahbed, Dehqonobod, Yoshlik, Istiqbol, Qoshqayron, M.Topvoldiev MFYlaridagi aholi xonadonlariga 2024 yil davomida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 fevraldagi 95-sonli qaror talabiga ko'ra uch kunda bir xizmat ko'rsatilmasdan bir haftada bir marta qamrov asosida xizmat ko'rsatib kelinishi natijasida 320 531 785 so'm ortiqcha mablag'lar hisoblanganligi;

Buvayda tumanidagi Tog'liq, Qoratepa, Bachqir, Dotxo, Ing'irchoq, Oqqo'rg'on, Jiydali, Beglar, Xakimto'ra, Urganji, Qum, Qoraqum, Pishag'ar, Jilva, Qo'rg'oncha, Turk MFYlariga aholi xonadonlariga 2024-yil davomida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 fevraldagi 95-sonli qaror talabiga mos ravishda tegishli sifatidagi xizmat ko'rsatilmagan tegishli davr uchun iste'molchilar to'lovlardan ozod etilmagan natijasida 1 142 985 013 so'm ortiqcha mablag'lar hisoblanganligi ma'lum bo'l bo'lgan.

Jamiyatning Bag'dod, Buvayda, Rishton va Uchko'prik tuman bo'limlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 fevraldagi 95-sonli qaror talabiga mos ravishda tegishli sifatidagi xizmat ko'rsatilmagan davr uchun iste'molchilarga xaq hisoblanishi natijasida "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 21-moddasi talabi buzilishiga yo'l qo'yilgan.

Tekshirish davomida tekshirishga aloqador bo'lgan hujjatlarni so'rab hududiy boshqarma tomonidan 17.02.2025 yilda 02-05/1314-sonli xat berilganligi, lekin so'ralgan hujjatlar belgilangan muddatda to'liq taqdim etilmaganligi sababli so'ralgan ma'lumotlarni to'liq taqdim etilishi bo'yicha 20.02.2025 yilda 02-05/1431-sonli ogohlantirish xati berilgan bo'lsada, jamiyat tomonidan 2022-2024 yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar, hududlardan maishiy chiqindilarni tashish bo'yicha 2023-2024 yillar uchun tasdiqlangan grafiklari nusxalari, 2022-2025 yillar davomida Dang'ara tumanidagi aholi xonadonlariga ko'rsatilgan xizmatlar xajmi va hisoblangan to'lovlar hamda barcha hududlar bo'yicha yuridik iste'molchilar uchun ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi (ilovadagi jadvalga asosan elektron shaklda) ma'lumotlar taqdim etilmagan. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi qonunining 32-moddasiga asosan vakolatli davlat organining mansabdor shaxslari raqobat to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun respublika ijro etuvchi hokimiyat organlaridan va boshqa tashkilotlardan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan, yuridik shaxslarning birlashmalaridan hamda jismoniy shaxslardan qonunchilikda belgilangan tartibda ularning hujjatlarini va axborotini olish hamda ularning hududiga kirish huquqiga egaligi, bunda talab qilib olingan hujjat, axborot va ma'lumotlar vakolatli davlat organiga bepul taqdim etilishi belgilab qo'yilgan bo'lsada, jamiyat tomonidan ma'lumotlar taqdim etilmasligi natijasida qonunning 32-moddasi talablari buzilishiga yo'l qo'yilgan.

Mazkur holatlar natijasida "Agro Rishton ta'mir servis" MChJ tomonidan "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 5-moddasi "Sotuvchi (ijrochi) o'z tashkilotining firma nomi, uning joylashgan (yuridik) manzili va ish tartibini iste'molchilarga ma'lum qilishi shart. Bunday ma'lumot lavhada aks ettirilishi lozimligi", 6-moddasi "Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchiga o'zi realizatsiya qilayotgan tovar (ish, xizmat)lar haqida o'z vaqtida zarur, to'g'ri va tushunarli ma'lumot berishi shartligi", 9-moddasi "Oldi-sotdi shartnomalarining ayrim turlari to'g'risidagi qoidalar, shuningdek, ayrim turdagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlanishi", 21-moddasi "Sotuvchi (ijrochi) iste'molchini haq evaziga qo'shimcha tovarlar sotib olishga yoki qo'shimcha xizmatlardan foydalanishga qistashga, shuningdek ko'rsatilmagan xizmatlar uchun haq olishga haqli emasligi", O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'g'risidagi qonunining 42-moddasi 7-bandi talabi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 dekabrda 722-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 47-bandi 2-xatboshi "deklaratsiya qilingan (tasdiqlangan), kelishilgan va belgilangan tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) oshirish tovarlarga (ishlar, xizmatlarga) tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) shakllantirish, deklaratsiya qilish (tasdiqlash) va belgilash hamda ularning qo'llanishi" talablari buzilganligi aniqlangan.

Yuqoridagilarga ko'ra hududiy boshqarma tomonidan "Agro Rishton ta'mir servis" MChJga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.10.2005 yildagi 225-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Raqobat, tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ish qo'zg'atish va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan 05.03.2025 yilda belgilangan tartibda 3-15-2025/19 raqam bilan ish qo'zg'atilgan bo'lib, ish ko'rib chiqish 12.03.2025 yilga belgilangan. Lekin "Agro Rishton ta'mir servis" MChJ rahbari yoki ishonchli vakili ishni ko'rib chiqishi jarayonida qatnashmaganligi sababli maxsus komissiya tomonidan ish ko'rib chiqilishi 19.03.2025 yilga qoldirilgan.

19.03.2025 yil kuni "Agro Rishton ta'mir servis" MChJ rahbari zarurat tufayli xizmat safariga borishi hamda ishni boshqa kunga qoldirish to'g'risida 19.03.2025 yildagi №72-sonli iltimosnomasiga asosan ishni ko'rib chiqish 27.03.2025 yilga qoldirilgan.

27.03.2025 yil kuni "Agro Rishton ta'mir servis" MChJ rahbari zarurat tufayli xizmat safariga borishi hamda ishni boshqa kunga qoldirish to'g'risida 27.03.2025 yildagi №53-sonli iltimosnomasiga asosan ishni ko'rib chiqish 04.04.2025 yilga qoldirilgan.

"Agro Rishton ta'mir servis" MChJ rahbari M.Nurmatov hamda jamiyatning Rishton tumani bo'limi rahbari B.Xaydarovlar 03.04.2025 yil kuni hududiy boshqarmaga kelib jamiyat tomonidan 2024 yil aprel oyidan 2025 yil fevral oyiga qadar bo'lgan davrda aniqlangan qarzdorliklar elektron bazada qayta hisob-kitob qilinganligi bildirib elektron shakldagi (tasdiqlanmagan) ma'lumotlarni taqdim etdi va Dang'ara tumanidagi aholi iste'molchilari xonadonlariga ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar elektron bazada yuzaga kelgan muammolar sababli taqdim etish imkoni bo'lmaganligi bildirdi.

Lekin hududiy boshqarmaga taqdim etilgan ma'lumotlarda qaysi iste'molchilarga qaysi davr va qaysi holatlar uchun qayta hisob-kitob qilinganligi to'g'risida asoslantiruvchi hujjatlar taqdim etilmadi. Shuningdek tekshirish davomida asossizligi aniqlangan qarzdorliklar iste'molchilar hisobidan chiqarilganligi tekshirish davomida

taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarda o'z tasdig'ini topmagan hamda Dang'ara tumanidagi aholi iste'molchilari xonadonlariga ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilmadi.

"Agro Rishton ta'mir servis" MChJning 27.03.2025 yildagi №53-sonli iltimosnomasiga asosan ishni ko'rib chiqish 04.04.2025 yilga qoldirilgan bo'lsa-da, ishni ko'rib chiqish jarayonida jamiyat rahbari (yoki uning ishonchli vakili) noma'lum sababga ko'ra qatnashmadi.

Yuqoridagilarga ko'ra ishni ko'rib chiqishda qatnashuvchilarning uzrli sabablarsiz kelmasligi yoki ular tomonidan ish ko'rib chiqishni boshqa kunga qoldirish to'g'risidagi iltimosnoma berilmaganligi ishni ularning ishtirokisiz ko'rilishiga va tegishli qaror qabul qilinishiga asos bo'lishi lozim deb topildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 12 oktabrdagi 225-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Raqobat va tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ish qo'zg'atish va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 27 va 32-bandiga asosan maxsus Komissiya

QAROR QILADI:

1. "Agro Rishton ta'mir servis" MChJ tomonidan tomonidan O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 5, 6, 9, 21-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'g'risidagi qonunining 32-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 dekabrda 722-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 47-bandi 2-xatboshi talablari buzilgan deb topilsin va kelgusida qonun buzilish holatga yo'l qo'ymaslik yuzasidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatma berilsin

2. "Agro Rishton ta'mir servis" MChJ tomonidan O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 21-moddasi talabi buzilishi natijasida ko'rsatilmagan xizmat uchun hisoblangan 6 235 777 765 (olti milliard ikki yuz o'ttiz besh million yetti yuz yetmish yetti ming yetti yuz oltmish besh) so'm hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29-dekabrda 722-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 47-bandi 2-xatboshisi talabi buzilishi natijasida qonuniy jihatdan kuchga kirmagan tariflarni ko'llash natijasida hisoblangan 2 368 577 188 (ikki milliard uch yuz oltmish sakkiz million besh yuz yetmish yetti ming bir yuz sakkiz) so'm mablag'lar iste'molchilarga qayta hisob-kitob qilish, iste'molchilarni aniqlash mumkin bo'lmagan taqdirda ixtiyoriy ravishda 1 (bir) oy muddat ichida Iqtisodiyot va moliya vazirligi Yagona g'azna xisobvarag'i 23402000300100001010, (INN:201122919, MFO:00014) shxr: 4014228603302243450943278 to'lash tavsiya etish bo'yicha bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatma berilsin;

3. "Agro Rishton ta'mir servis" MChJga "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 42-moddasi 1-qismi 2-bandiga asosan ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega bo'lgan mahsulotlar narxlarini asossiz ravishda oshirganlik uchun oxirgi uch yildan ortiq bo'lmagan davrda tovarni realizatsiya qilishdan olingan tushum summasining (jami amalga oshgan savdo boshlang'ich narxi 10.248.423.921) 5 foizi miqdorida ya'ni 512 421 196 (besh yuz o'n ikki million to'rt yuz yigirma bir ming bir yuz to'qson olti) so'm jarimani 1 (bir) oy muddat ichida Iqtisodiyot va moliya vazirligi Yagona g'azna xisobvarag'i 23402000300100001010, (INN:201122919, MFO:00014) shxr: 4014228609302243430458278 to'lash tavsiya etilsin.

taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarda o'z tasdig'ini topmagan hamda Dang'ara tumanidagi aholi iste'molchilari xonadonlariga ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilmadi.

"Agro Rishton ta'mir servis" MChJning 27.03.2025 yildagi №53-sonli iltimosnomasiga asosan ishni ko'rib chiqish 04.04.2025 yilga qoldirilgan bo'lsa-da, ishni ko'rib chiqish jarayonida jamiyat rahbari (yoki uning ishonchli vakili) noma'lum sababga ko'ra qatnashmadi.

Yuqoridagilarga ko'ra ishni ko'rib chiqishda qatnashuvchilarning uzrli sabablarsiz kelmasligi yoki ular tomonidan ish ko'rib chiqishni boshqa kunga qoldirish to'g'risidagi iltimosnoma berilmaganligi ishni ularning ishtirokisiz ko'rilishiga va tegishli qaror qabul qilinishiga asos bo'lishi lozim deb topildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 12 oktabrdagi 225-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Raqobat va tabiiy monopoliyalar, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ish qo'zg'atish va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 27 va 32-bandiga asosan maxsus Komissiya

QAROR QILADI:

1. "Agro Rishton ta'mir servis" MChJ tomonidan tomonidan O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 5, 6, 9, 21-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'g'risidagi qonunining 32-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 dekabrda 722-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 47-bandi 2-xatboshi talablari buzilgan deb topilsin va kelgusida qonun buzilish holatga yo'l qo'ymaslik yuzasidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatma berilsin

2. "Agro Rishton ta'mir servis" MChJ tomonidan O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 21-moddasi talabi buzilishi natijasida ko'rsatilmagan xizmat uchun hisoblangan 6 235 777 765 (*olti milliard ikki yuz o'ttiz besh million yetti yuz yetmish yetti ming yetti yuz oltmish besh*) so'm hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29-dekabrda 722-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 47-bandi 2-xatboshisi talabi buzilishi natijasida qonuniy jihatdan kuchga kirmagan tariflarni ko'llash natijasida hisoblangan 2 368 577 188 (*ikki milliard uch yuz oltmish sakkiz million besh yuz yetmish yetti ming bir yuz sakkiz*) so'm mablag'lar iste'molchilarga qayta hisob-kitob qilish, iste'molchilarni aniqlash mumkin bo'lmagan taqdirda ixtiyoriy ravishda 1 (bir) oy muddat ichida Iqtisodiyot va moliya vazirligi Yagona g'azna xisobvarag'i 23402000300100001010, (INN:201122919, MFO:00014) shxr: 4014228603302243450943278 to'lash tavsiya etish bo'yicha bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatma berilsin;

3. "Agro Rishton ta'mir servis" MChJga "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 42-moddasi 1-qismi 2-bandiga asosan ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega bo'lgan mahsulotlar narxlarini asossiz ravishda oshirganlik uchun oxirgi uch yildan ortiq bo'lmagan davrda tovarni realizatsiya qilishdan olingan tushum summasining (jami amalga oshgan savdo boshlang'ich narxi 10.248.423.921) 5 foizi miqdorida ya'ni 512 421 196 (*besh yuz o'n ikki million to'rt yuz yigirma bir ming bir yuz to'qson olti*) so'm jarimani 1 (bir) oy muddat ichida Iqtisodiyot va moliya vazirligi Yagona g'azna xisobvarag'i 23402000300100001010, (INN:201122919, MFO:00014) shxr: 4014228609302243430458278 to'lash tavsiya etilsin.


4. "Agro Rishton ta'mir servis" MChJ tomonidan O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'g'risidagi qonunining 42-moddasi 7-bandiga muvofiq vakolatli davlat organiga axborotni taqdim etmaganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdorida ya'ni 18 750 000 (o'n sakkiz millon yetti yuz ellik ming) so'm jarimani 1 oy muddat ichida Iqtisodiyot va moliya vazirligi Yagona g'azna xisobvarag'i 23402000300100001010, (INN:201122919, MFO:00014) shxr: 4014228609302243430458278 to'lash tavsiya etilsin.

5. "Agro Rishton ta'mir servis" MChJ tomonidan 2022-2025 yillar davomida barcha yuridik shaxslarga ko'rsatilgan xizmatlar hamda Dang'ara tumanidagi aholi iste'molchilari xonadonlariga ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni hududiy boshqarmaga 10 (o'n) kun muddatda taqdim etilishi ta'minlansin.

6. Mazkur qaror ustidan bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasiga yoki tegishli sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Komissiya raisi

Komissiya a'zolari



N.Yusupov

A.Utamboyev

A.Sulaymonov

A.Abdullayev

J.Ibroximov